



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*




NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI.*2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Namangan viloyatida 2024- yil 1-aprel holatiga doimiy aholi soni **3079,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **13,8** ming kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1998,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1081,1** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**3079,9** *ming kishi***Tabiiy o'sish****+14,3** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.****Shahar****64,9%****Qishloq****35,1%****Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.***2024- yil yanvar-mart, ming kishi*

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2024- yil 1-aprel holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi.

	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Namangan viloyati	3012,4	3079,9	102,2
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	682,2	700,4	102,7
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	134,7	137,6	102,1
Kosonsoy	223,8	229,1	102,3
Namangan	189,2	193,5	102,3
Norin	173,2	176,4	101,9
Pop	232,2	236,5	101,8
To‘raqo‘rg‘on	240,8	246,3	102,3
Uychi	228,3	233,4	102,2
Uchqo‘rg‘on	182,5	186,0	101,9
Chortoq	211,2	215,7	102,1
Chust	280,9	286,9	102,1
Yangiqo‘rg‘on	233,4	238,1	102,0

1-aprel holatiga, ming kishi


Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2024- yil 1-aprel holatiga 1 kvadrat kilometrغا o'rtacha **414,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **9,1** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **404,9** kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Namangan shahrida **4669,3** kishi, Namangan tumanida **952,9** kishi, To'raqo'rg'on tumanida **903,0** kishi, Norin tumanida **851,6** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Pop tumanida **81,3** kishi, Chust tumanida **306,0** kishini tashkil etgan.


Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi.

1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR.

Yanvar-mart



■ Tug'ilganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-mart, kishi

Namangan shahar	4629	26,7 ‰
Chust	1618	22,7 ‰
To'raqo'rg'on	1394	22,8 ‰
Kosonsoy	1392	24,5 ‰
Uychi	1385	23,9 ‰
Yangiqo'rg'on	1323	22,4 ‰
Pop	1207	20,6 ‰
Chortoq	1107	20,7 ‰
Namangan	1062	22,1 ‰
Uchqo'g'on	1001	21,7 ‰
Norin	879	20,1 ‰
Mingbuloq	749	22,0 ‰


2024- yil yanvar-mart oylarida 17,7 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **23,2** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **-1,9** promillega kamayganligini kuzatildi (2023- yilda **25,1** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR Yanvar-mart



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-mart, kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,4** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,3 promillega ko‘payganligini kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,2** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi.

2024- yil yanvar-mart, kishi




2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **55,9 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,6 %** i – o‘simtalardan, **8,4 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,7 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,3 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **16,6 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR Yanvar-mart




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.



2024- yilning yanvar-mart oylarida **3,2** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,1** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR

Yanvar-mart



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-mart, birlik



2024- yil yanvar-mart oylarida **1,0** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promille kamayganligini kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **1,6** promille bo‘lgan)

AHOLI MIGRATSIYASI.

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **743** kishini, Ko‘chib ketganlar soni esa **1 279** kishini tashkil etdi.


**Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar
va ko'chib ketganlar soni.**

2024- yil yanvar-mart, kishi

	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
Namangan viloyati	743	1297
shahar:		
Namangan shahri	308	265
tumanlar:		
Mingbuloq	6	49
Kosonsoy	42	78
Namangan	24	72
Norin	73	111
Pop	68	148
To'raqo'rg'on	53	65
Uychi	40	75
Uchqo'rg'on	14	130
Chortoq	22	63
Chust	69	160
Yangiqo'rg'on	24	81


JAMI KO‘CHIB KELGANLAR.

yanvar-mart



Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-mart, kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida **0,7** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **0,8** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR.


yanvar-mart



■ Ko‘chib ketganlar, ming kishi ● O‘sish sur‘ati, % da

Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-mart, kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1,3** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **1,6** promille bo‘lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 69 227-84-91